



## Methods of improving the socialization of academic lyceum students

Dildora GADOEVA<sup>1</sup>

Navoi State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

**Keywords:**

interactive learning  
methods,

group projects and activities,  
mentoring and coaching,  
socialization.

### ABSTRACT

In the context of the modern education system, one of the pressing issues is enhancing the socialization process of students alongside their academic learning. For students in academic lyceums, socialization is particularly important, not only as part of their education but also for personal development and finding a successful place in society. The socialization of academic lyceum students involves not only acquiring knowledge and skills but also developing social competencies. This article will explore ways to enhance socialization and emphasize its importance.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss9/S-pp176-180>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuvini takomillashtirish usullari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

interaktiv ta'lim usullari,  
jamoaviy loyihalar va  
tadbirlar,  
mentorlik va murabbiylik,  
ijtimoiylashuv

Zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida o'quvchilarning bilim olish bilan bir qatorda, ijtimoiylashuv jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, akademik litseylar o'quvchilari uchun ijtimoiylashuv faqat ta'lim olish jarayonida emas, balki shaxs sifatida shakllanish va jamiyatda muvaffaqiyatli o'z o'rnini topish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuvi nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada ijtimoiylashuvni takomillashtirish usullari va uning ahamiyati yoritiladi.

<sup>1</sup> Independent Researcher, Navoi State Pedagogical Institute.

# Методы повышения социализации учащихся академических лицеев

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

интерактивные методы обучения, групповые проекты и мероприятия, наставничество и коучинг, социализация.

В условиях современной системы образования одним из актуальных вопросов является совершенствование процесса социализации учащихся наряду с их обучением. Для учащихся академических лицеев социализация особенно важна, так как она играет значимую роль не только в учебном процессе, но и в формировании личности и нахождении успешного места в обществе. Социализация лицеистов включает не только приобретение знаний и навыков, но и развитие социальных компетенций. В данной статье будут рассмотрены пути улучшения процесса социализации и подчеркнута его важность.

### Kirish.

Bugungi globallashtirilgan dunyoda o'quvchilarni nafaqat akademik bilimlar bilan qurollantirish, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, akademik litseylar yoshlarning kelajakda jamiyatda faol shaxslar bo'lishlari uchun sharoit yaratadi. Ular faqatgina o'z mutaxassisliklariga oid bilimlarni egallab qolmasdan, ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashishlari va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuvini takomillashtirish usullari tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon jamiyatda ularning faol a'zolariga aylanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, akademik litseylarda ta'lim olayotgan yoshlar uchun ijtimoiylashuv jarayoni yanada dolzarbdir. Litseyda ta'lim olish yoshlarning faqatgina bilim darajasini oshirish bilan cheklanmay, balki ularning jamiyat bilan integratsiyalashuvi, shaxsiy fazilatlarining rivojlanishi va ma'naviy dunyoqarashining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu maqolada akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayoni va bu jarayonni takomillashtirish usullari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

### *Ijtimoiylashuvning mohiyati va ahamiyati*

Ijtimoiylashuv — bu shaxsning jamiyatga moslashuvi, jamiyat qoidalarini va qadriyatlarini o'zlashtirishi, o'z o'rnini topishi jarayonidir. Ushbu jarayon o'z ichiga ta'lim, oila, jamoa va boshqa ijtimoiy institutlar ta'sirini oladi. Akademik litseyda ijtimoiylashuv bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi, chunki bu davrda yoshlar o'zining shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga, turli jamoalar bilan muloqot qilishga o'rganadi.

### *Ijtimoiylashuv tushunchasi*

Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi, uning ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi va turli ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlanish jarayonidir. Bu jarayonda shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'rganadi, muloqot qilish, jamoada ishlash, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. Akademik litsey o'quvchilari uchun ijtimoiylashuv jarayoni alohida ahamiyatga ega, chunki ular kelajakda jamiyatning faol va malakali fuqarolari bo'lib yetishishlari uchun shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishlari kerak.

*Litsey o'quvchilari uchun ijtimoiylashuv quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:*

-Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish: muloqot qilish, fikr almashish va munozara olib borish qobiliyati.

-Jamoaviy faoliyatda ishtirok etish: jamoada ishlash, boshqa yoshlar bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirish.

-Mas'uliyatli va faollik ko'rsatish: jamiyat oldidagi mas'uliyatni his qilish va unda faol ishtirok etish.

Shaxsiy identifikatsiya: yoshlarning o'z qiziqishlari, e'tiqodlari va qadriyatlarini aniqlab olishlari.

*Akademik litseylarda ijtimoiylashuv omillari:*

Akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayoni bir qancha omillar bilan bog'liq. Ushbu omillar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyat bilan integratsiyalashuvi uchun muhim hisoblanadi:

a) Ta'lim jarayoni. Akademik litseylardagi ta'lim jarayonining sifatli bo'lishi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Jamoaviy loyihalar, seminarlar, munozaralar orqali o'quvchilar jamiyatga nisbatan o'z pozitsiyasini belgilaydi.

b) O'qituvchilar va ma'muriyat roli. O'qituvchilar nafaqat bilim beruvchilar, balki ijtimoiy tarbiya beruvchilar sifatida ham muhim rol o'ynaydilar. Ular o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonini to'g'ri yo'naltirishi, ularning ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishiga imkon yaratishi kerak.

c) Oila muhitining ta'siri. Oila ijtimoiylashuv jarayonining asosiy poydevorlaridan biridir. Ota-onalarning farzandlari bilan qiladigan muloqoti, ularni qo'llab-quvvatlashi va to'g'ri yo'naltirishi ularning litseyda va umuman jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishlarida muhim ahamiyatga ega.

d) Jamoat tashkilotlari va tadbirlar. Akademik litseylarda turli xil jamoat tashkilotlari va tadbirlar (forumlar, ko'rgazmalar, sport musobaqalari, san'at festivallari) o'quvchilarni faollikka chorlaydi. Bunday tadbirlarda ishtirok etish o'quvchilarning muloqot doirasini kengaytiradi va ularga yangi imkoniyatlar beradi.

*Ijtimoiylashuvni takomillashtirish usullari*

1. Interaktiv ta'lim usullari: Interaktiv ta'lim o'quvchilar o'rtasida faol muloqot va hamkorlikni ta'minlaydi. Akademik litsey dars jarayonlarida qo'llaniladigan muammoli vaziyatlar yaratish, guruhij munozaralar va rolli o'yinlar o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda o'quvchilar turli fikrlarni tinglash, ularni tahlil qilish va o'z fikrlarini himoya qilishni o'rganadilar. Akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuvini kuchaytirish uchun interaktiv metodlar keng qo'llanilishi kerak. Guruhlarda ishlash, o'zaro muloqot va tajriba almashish orqali o'quvchilar ijtimoiy muhitda samarali o'zaro aloqa qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

2. Jamoaviy loyihalar va tadbirlar: Jamoaviy faoliyat ijtimoiylashuv jarayonining asosiy usullaridan biridir. Litsey o'quvchilari orasida turli loyihalar, tanlovlar va madaniy tadbirlarni tashkil etish ularda birgalikda ishlash, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash, liderlik va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, ekologik aksiyalar, sport musobaqalari, ilmiy konferensiyalar kabi tadbirlar o'quvchilarni jamiyat bilan yanada yaqindan tanishtiradi va ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

3. Tarbiyaviy tadbirlar: O'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyatga ega. Maktabdan tashqari turli seminarlar, treninglar va psixologik maslahatlar o'quvchilarning ijtimoiy muhitda moslashuvini yaxshilaydi. Masalan, liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan

treninglar, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish bo'yicha mahorat darslari ijtimoiylashuv jarayoniga katta hissa qo'shadi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalardan foydalanish: Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar katta rol o'ynaydi. Akademik litsey o'quvchilari uchun turli onlayn platformalarda muloqot qilish, fikr almashish va o'z-o'zini ifodalash imkoniyatlari ham ijtimoiylashuv jarayonining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik va internet xavfsizligi haqida ma'lumot berish orqali o'quvchilarning ijtimoiy axborot makonida to'g'ri faoliyat yuritishlariga yordam berish mumkin.

5. Mentorlik va murabbiylik tizimi: Tajribali murabbiylar yoki katta yoshli talabalar yordamida o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularga to'g'ri maslahatlar berish ijtimoiylashuv jarayonini yanada tezlashtiradi. Mentorlik tizimi orqali o'quvchilar o'zlarini ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega shaxslar sifatida shakllantirishlari mumkin.

6. Psixologik xizmatlar: O'quvchilar psixologik xizmatlar yordamida o'z shaxsini va ijtimoiy muhitni chuqurroq anglab olish imkoniga ega bo'ladi. Psixologlar o'quvchilarning shaxsiy muammolarini hal etishda, ularni to'g'ri yo'lga solishda yordam beradi.

O'smirlik davriga oid yana bir muhim jihatning ko'zdan qochirishimiz juda muhimdir, ya'ni o'smirning ijtimoiylashuvining o'ziga xos qiyinchiliklari ham talaygina:

-o'ziga yuqori baho berish (qahramonlik ko'rsatish, hammaga tanilish)ni xohlaydi, lekin ijtimoiy mavqiye pastligi bilan;

-o'smir fikri bilan ota-onaning eskicha fikrlashi, madaniyati to'g'ri kelmasligi (u ota-onaga o'smir yoshida ham bola bo'lib ko'rinishi), lekin o'smir psixofiziologik jihatdan katta bo'lib qolganligi bilan;

-tengdoshlari fikri bilan o'smirning o'zigagina xos bo'lgan mustaqil qadriyatlarini to'g'ri kelmasligi bilan ifodalanadi; Ijtimoiy moslashuvdagi filogenetik yondashuv asoschisi rus olimi I.N.Aksyonov aniqlashicha, bu ijtimoiylashuv jarayoni uch bosqichda kechadi:

- 1) shaxsning o'zligini anglashi;
- 2) jamoaviylik qoidalarini o'rganishi;
- 3) ijtimoiylashuvning amaliy ahamiyat kasb etishi.

Bu yondashuvning dastlabki «nominatsiya bosqichi», ikkinchisi «kasbiy bosqich» va uchinchi «universal bosqich» deb nomlangan. Olimning bu fikrini

hisobga oladigan bo'lsak, sotsiumning tarkibiy qismlarida o'smirning ijtimoiylashuvini anglash, o'rganish va amaliyotga qo'llash tarzida kechadi. Zero,

o'smirning oilada, o'quv, mehnat va jamoalar guruhlarida ijtimoiylashib borishi uchun muhim xususiyatni - bilish, o'rganish va amal qilishni qamrab oladi. Sotsiumning o'smirga bunday ta'sir etish yo'li davomiylik qonuniyatiga asosan kechadi. Unga ko'ra o'smir ijtimoiy bilim, ijtimoiy axloq va ijtimoiy faoliyatni hosil qilishi uchun butun hayoti davomida rivojlanib boradi.

### **Xulosa.**

Akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuvini takomillashtirish ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib yetishishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Interaktiv ta'lim usullari, jamoaviy loyihalar va tarbiyaviy tadbirlar kabi usullar orqali o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamoada ishlash va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. IIV akademik litsey o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashda ularning oila a'zolari, ota-onalar, tengdoshlari va atrofdagilar bilan muloqotda bo'lish, jamoa joylarida o'zini tuta olish, mehnat qilish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, liderlik qobiliyatlarini namoyon etish, shaxsiy salomatligi

to'g'risida qayg'urish, yaqinlariga nisbatan g'amxo'r bo'lish, ota-onalari, kattalar, shu jumladan, o'qituvchilarning mehnatini qadrlash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishlariga e'tibor qaratiladi. Bu esa, o'quvchilarning nafaqat mutaxassislik bilimlariga ega bo'lishlarini, shu bilan birga pedagogik-psixologik fanlarni ham chuqur o'zlashtirishlarini taqozo etadi. Akademik litsey o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonini takomillashtirish, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida shakllantirish uchun ta'lim jarayoni, o'qituvchilarning yondashuvi va jamoaviy faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtirokchi sifatida tayyorlash uchun o'quv jarayonida faol o'quv usullari va yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat bilim olishlariga, balki jamiyatda o'z o'rnini topishiga ham katta yordam beradi. Tadqiqot va amaliyotlar ko'rsatganidek, ijtimoiylashuvning to'g'ri shakllangan jarayoni yoshlarning kelgusidagi shaxsiy va professional hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, akademik litseylar o'quvchilarining ijtimoiylashuvini takomillashtirish uchun izchil va rejalangan yondashuv zarur.

**Takliflar:**

- ijtimoiy jabhalar bilan tanishuvlar tashkil etish;
- ijtimoiy vedioroliklar, ko'rgazmalar, treninglarga tez-tez ishtirok etishlarini ta'minlash;
- ijtimoiy pedagog va ijtimoiy psixologlarni biriktirgan holda tarbiyaviy ishlar tashkil etish;
- turlicha yot g'oyalar qamrovidan himoya qilish, atrofdagilar bilan munosabatlarini nazoratga olish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdukarimov, X. (2019). Ta'limda ijtimoiylashuv jarayonining ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Bobojonov, A. (2021). Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish usullari. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Karimova, N. (2020). O'quvchilarni tarbiyalashda interaktiv metodlardan foydalanish. Pedagogik Innovatsiyalar Jurnali, 3(1), 45-50.
4. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Dewey, J. (1997). Experience and Education. New York: Touchstone.
6. Абрамова Г.С. Возрастная психология. Москва, «Академический проект». Москва. 2001.
7. Немов Р.С. Психология. Книга 1. М., – ВЛАДОС. 2006 г.
8. Ganiev A.G. Methods of developing "Creative thinking" skills in teaching physics. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492, 1580-1587.